

Date: 27th October-2025

**MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKKA
KIRITILGAN YARASHUV INSTITUTI: ASOSLARI VA YANADA
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Baxramov Xojiakbar Xusanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka ilk bor kiritilgan ma'muriy yarashuv institutining tatbiq etilishi, asoslari, xususiyatlari va yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yarashuv instituti, ma'muriy yarashuv instituti, yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish, yarashuv to'g'risidagi ariza jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar.

**ИНСТИТУТ ПРИМИРЕНИЯ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ОБ
АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ: ОСНОВАНИЕ И
ВОПРОСЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Аннотация. В статье освещается введение нового института административного примирения в законодательство Республики Узбекистан об административной ответственности, основание, особенности и вопросы дальнейшего совершенствования.

Ключевые слова: институт примирения, институт административного примирения, освобождение от административной ответственности в связи с примирением, заявление о примирении, потерпевший, гражданский истец.

**THE INSTITUTE OF RECONCILIATION IN THE LEGISLATION ON
ADMINISTRATIVE LIABILITY: BASIS AND ISSUES OF FURTHER
IMPROVEMENT**

Annotation. The article covers the introduction of a new institute of administrative reconciliation into the legislation of the Republic of Uzbekistan on administrative responsibility, the basis, features and issues of further improvement.

Key words: institution of reconciliation, institution of administrative reconciliation, release from administrative liability in connection with reconciliation, application for reconciliation, victim, civil plaintiff.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini demokratlashtirish hamda erkinlashtirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amaliyoti yo'lga qo'yildi.



Date: 27th October-2025



Jumladan, “Xalqimizga xos bag‘rikenglik va olijanoblik fazilatlarining hayotiy ifodasi sifatida – yarashuv instituti” respublikamizda jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish, uni insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirishga qaratilgan holda dastlab 2001-yil 29-avgustda “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun qabul qilindi[1].

Ammo, ushbu qonun bilan faqat Jinoyat va Jinoyat protsessual qonunchiligiga yarashuv instituti tatbiq etilgan edi. Ushbu qonunga ko‘ra, jinoyatlar tasnifi o‘zgartirildi, ya‘ni og‘ir va o‘ta og‘ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan hamda uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga o‘tkazildi. Shuningdek, mazkur qonun bilan 2001 yildan boshlab sud amaliyotiga “yarashuv instituti” joriy etilishi tizim islohotlarida muhim bosqichni boshlab berdi. Shundan keyin, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplasa, u jinoiy javobgarlikka tortilmasligi belgilandi. Sud-huquq sohasidagi bunday yangilanishlar qanchalik oqilona ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi.

Yarashuv instituti jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning bir turi sifatida shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asos bo‘ldi. Hozirgi paytda Jinoyat kodeksining 50 ta moddasida nazarda tutilgan 60 ga yaqin jinoyat tarkibi bo‘yicha yarashuv institutini qo‘llash imkoniyati mavjud. Bu institut, jinoyat qonunchiligiga joriy etilganidan 2016 yilning 1 yanvariga qadar respublika bo‘yicha 177 ming 492 nafar shaxsga nisbatan 163 ming 759 ta jinoyat ishi taraflarning o‘zaro yarashganligi munosabati bilan harakatdan tugatilgan edi. 2019 yildan 2023 yil yakuniga qadar 59 ming 232 nafar shaxsga nisbatan 55 ming 852 ta jinoyat ishlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga asosan tugatilgan[2].

Shuningdek, ushbu qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligiga 582–586-moddalarni o‘z ichiga qamrab olgan **“Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish”** deb nomlangan yangi 62-bob kiritilib ushbu bobda quyidagi protsessual talablar:

- Yarashilganligi munosabati bilan ko‘rib chiqiladigan jinoyat ishlari;
- Yarashuv to‘g‘risidagi ariza;
- Jinoyat ishini sudga yuborish tartibi;
- Sud muhokamasi;
- Sud ajrimi belgilandi.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda qisqa muddatda taraflar o‘rtasidagi nizo bartaraf etilayotgani, jabrlanuvchining buzilgan huquqlari tiklanayotgani va unga yetkazilgan zarar to‘liq qoplab berilayotgani hamda sudlanuvchi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinayotgani, ayniqsa, e‘tiborga molikdir.

Jinoyat qonunchiligiga ushbu institutning kiritilishi jinoiy huquqiy munosabatlarni erkinlashtirishda samarali vosita bo‘ldi.

Date: 27th October-2025

Mazkur institut jabrlanuvchining huquqlarini ishonchli himoya qilish, respublikada sudlanganlik holatini kamaytirish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining kengroq qo'llanilishiga imkon yaratdi.

Bunday ishlarni qonuniy to'g'ri hal etish bo'yicha 2002 yil 25 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 27-sonli qarori qabul qilindi[3].

Yarashuv instituti sud-huquq amaliyotida o'zini oqladi va bugungi kunda ham samarali foydalanib kelinmoqda. Shu bois, mazkur Yarashuv institutini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka ham tatbiq etilishi sud-huquq sohasidagi islohotlarining mantiqiy davomi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan, 2021-yil 4-oktabrda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-720-son qonunining qabul qilinishi bu borada yana bir muhim huquqiy asoslardan biri bo'ldi[4].

Ushbu qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi milliy qonunchiligimizga ilk bor taraflarning yarashilganligi munosabati bilan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish tartibi, ya'ni "Yarashuv instituti" joriy etildi.

Mazkur yangilik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning Umumiy qismiga **"Yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish"** deb nomlangan 21²-modda sifatida kiritirildi. Ushbu moddaga ko'ra, dastlab, **12ta** (turdagi) **moddada** nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs *o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, sud uni ma'muriy javobgarlikdan ozod* etib ishni tugatishi mumkinligi huquqiy tartibga solindi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan mazkur yangilik o'zining ijobiy samarasini namoyon qildi. Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-oktabrdagi "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-972-sonli qonuni[5] bilan O'zR MJtKning "Yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlangan 21²-moddaning birinchi qismiga yana **3ta** (turdagi) **moddada** nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni ham sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi qayd etildi. Natijada hozirgi kunda jami 15ta (turdagi) moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar toifasi mavjud. Ular (MJtKning 21²-moddasida qayd etilgan) quyidagi ma'muriy huquqbuzarliklar hisoblanadi:

- 1) MJtKning 40-moddasida (tuhmat);
- 2) 41-moddasida (haqorat qilish);



Date: 27th October-2025

- 3) 45-moddasida (fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish);
- 4) 46-moddasida (fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish);
- 5) 46¹-moddasida (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish);
- 6) 52-moddasida (yengil tan jarohati yetkazish);
- 7) 61-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (oz miqdorda talon-taroj qilish);
- 8) 61²-moddasida (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish);
- 9) 62-moddasida (topib olingan mol-mulkni yashirish);
- 10) 104-moddasida (ekinzorlarni payhon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish);
- 11) 121-moddasida (transport vositalarining ichki jihozlariga shikast yetkazish);
- 12) 133-moddasida (transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi);
- 13) 134-moddasida (haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi);
- 14) 183-moddasida (mayda bezorilik);
- 15) 200-moddasida (o'zboshimchalik) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxs, **agar u o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.**

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) taraflarning yarashuvi munosabati bilan ishni sudga yuborish to'g'risida **qaror chiqaradi** va ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ish materiallarini MJtKning 313¹-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboradi.

Biroq, huquqbuzar shaxs mazkur MJtKning 21²-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni bir yil ichida takroran sodir etgan taqdirda tomonlarning yarashuvi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan **ozod qilinmaydi.**

2021-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-720-son qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar" deb nomlangan 271-moddasi 10¹-band bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, huquqbuzar yarashuv instituti ta'sir doirasiga tushadigan ishlar bo'yicha jabrlanuvchi bilan yarashgan bo'lsa ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi qayd etildi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish» deb nomlangan To'rtinchi bo'limi «**Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish**» deb nomlangan yangi XXIII¹ bob bilan to'ldirildi.

Mazkur «Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish» deb nomlangan yangi XXIII¹ bobda quyidagi moddalar o'z aksini topdi:



Date: 27th October-2025

1) **313¹-modda.** Yarashilganligi munosabati bilan ko'rib chiqiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar.

2) **313²-modda.** Yarashuv to'g'risidagi ariza.

3) **313³-modda.** Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni sudga yuborish tartibi.

4) **313⁴-modda.** Sud muhokamasi.

5) **313⁵-modda.** Sud qarori.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirishimiz mumkin bo'ladi.

Birinchidan, amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning **“Yarashuv to'g'risidagi ariza”** deb nomlangan 313²-moddaning birinchi qismidagi “Jabrlanuvchi” degan so'zdan keyin (fuqaroviy da'vogar) degan so'zlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, **“Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni sudga yuborish tartibi”** deb nomlangan 313³-moddaning birinchi qismida “Vakolatli organ (mansabdor shaxs) jabrlanuvchining” degan so'zlardan keyin (fuqaroviy da'vogar) degan so'zlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

“Sud muhokamasi” deb nomlangan 313⁴-moddaning ikkinchi qismida “jabrlanuvchi” degan so'zlardan keyin (fuqaroviy da'vogar), degan so'zlar bilan shuningdek, ushbu moddaning to'rtinchi qismidagi “jabrlanuvchining” degan so'zlardan keyin (fuqaroviy da'vogarning) degan so'zlar bilan, shuningdek, beshinchi qismi to'rtinchi kichik xatboshisidagi “jabrlanuvchiga” degan so'zlardan keyin (fuqaroviy da'vogarga) degan so'zlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, mazkur taklif etilayotgan (fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar) ya'ni ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslarning protsessual maqomi hamda huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi normalarni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning “Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar” deb nomlangan 22-Bobiga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham Jinoyat protsessual kodeksda ham, bir huquqbuzar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi)shaxs tomonidan bir jabrlanuvchiga nisbatan ikkita moddada nazarda tutilgan qilmishni sodir etganda birinchisi yarashuvga tushuvchi qilmish hisoblansa ikkinchi modda esa bu toifaga mansub bo'lmaganda biroq, jabrlanuvchi yarashishga rozi bo'lgan holda ishni qonuniy hal etish masalasi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan huquqiy tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

To'rtinchidan, amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan moddalar toifasini yanada kengaytirish (masalan: 59²-modda. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik; 46²-modda. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish va boshqa taalluqli moddalar) maqsadga muvofiq bo'ladi.



Date: 27th October-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni – Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 165-modda.
2. <https://stat.sud.uz/file/2024/31.01.pdf>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 25-oktabrdagi «Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 27-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi 2021-yil 4-oktabrdagi O'RQ-720-sonli Qonuni – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021 y., 03/21/720/0930-son.
5. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-oktabrdagi "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-972-sonli Qonuni – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2024 y., 03/24/972/0785-son.

